



BANKLARDA MIJOZLARNING MOLİYAVIY HOLATINI ANIQLASH USLUBINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI KREDIT PORTFELI SIFATINI OSHIRISH

Annaev V.T.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur tezisdagi tijorat banklarida mijozlarning moliyaviy holatini baholash uslublarini takomillashtirish orqali kredit portfeli sifatini oshirish masalalari tadqiq etilgan. Qarz oluvchilarning moliyaviy holatini aniqlashda qo'llanilayotgan amaldagi yondashuvlar tahlil qilinib, ularning afzalliklari va kamchiliklari yoritilgan. Shuningdek, xalqaro tajriba asosida moliyaviy va nomoliyaviy ko'rsatkichlarni kompleks baholash, risklarni aniqlashning zamonaviy usullarini joriy etish hamda kredit qarorlari qabul qilish jarayonini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Taklif etilgan yondashuvlar banklarda kredit risklarini kamaytirish, muammoli kreditlar ulushini qisqartirish va kredit portfeli sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: mijozning moliyaviy holati, kredit portfeli, kredit riski, kreditga layoqatlilik, moliyaviy tahlil, scoring modeli, reyting baholash, risk-menejment, tijorat banklari, muammoli kreditlar (NPL), kredit siyosati, moliyaviy koeffitsientlar, kredit monitoringi.

Jahon moliya bozorlarida yuzaga kelayotgan o'zgarishlar, iqtisodiy beqarorlik, inflyatsiya jarayonlari va kredit risklarining ortishi tijorat banklarida kredit portfeli sifatini ta'minlash masalasini yanada dolzarblashtirmoqda.



Banklar faoliyati barqarorligi, ularning likvidligi va daromadliligi ko'p jihatdan shakllantirilgan kredit portfelining sifatiga bog'liq bo'lib, ushbu sifat esa kredit ajratishdan oldin qarz oluvchilarning moliyaviy holatini xolis va aniq baholash darajasi bilan belgilanadi. Xalqaro bank amaliyotida qarz oluvchilarning moliyaviy holatini baholashda zamonaviy reyting tizimlari, scoring modellari, moliyaviy koeffitsientlar tahlili, pul oqimlarini baholash hamda prognoz modellaridan keng foydalanilmoqda. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar (Big Data) asosida kredit risklarini baholash mexanizmlari joriy etilib, kredit portfeli sifatini oshirishga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham bank tizimini isloh qilish, kredit risklarini boshqarish tizimini takomillashtirish, xalqaro standartlarga muvofiq risk-menejmentni joriy etish va muammoli kreditlar ulushini qisqartirish bo'yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Biroq amaliyotda mijozlarning moliyaviy holatini baholashda ayrim ko'rsatkichlarning yetarli darajada hisobga olinmasligi, moliyaviy hisobotlar sifatidagi farqlar, tarmoq xususiyatlarini inobatga olishning cheklanganligi hamda baholash metodikalarining zamonaviy risk omillariga to'liq mos emasligi kredit risklarining oshishiga sabab bo'lmoqda.

Shu nuqtai nazardan, banklarda mijozlarning moliyaviy holatini aniqlash uslubini takomillashtirish, baholash mezonlarini xalqaro tajriba asosida rivojlantirish, moliyaviy va nomoliyaviy omillarni kompleks hisobga oluvchi modellarni qo'llash hamda ushbu baholash natijalarini kredit qarorlariga integratsiya qilish orqali kredit portfeli sifatini oshirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kreditga layoqatlilik – xo'jalik sub'ektining kreditni o'z vaqtida va to'liq qaytarishga qodirligidir.



Xo'jalik sub'ektlarining kreditga layoqatliligi bir qancha ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi. Ko'rsatkichlar soni cheklanmaydi va har bitta filial tomonidan xizmat ko'rsatilayotgan mijozlar faoliyati xususiyatlaridan kelib chiqqan holda mustaqil ravishda belgilanadi.

Mazkur metodikada kreditga layoqatlilikning zarur majburiy ko'rsatkichlari ko'rib chiqiladi: qoplash va likvidlik koeffitsientlari, o'z mablag'lari bilan ta'minlanganlik (avtonomiya koeffitsienti), o'z aylanma mablag'lari mavjudligi dinamikasi.

Shuningdek qo'shimcha ko'rsatkichlarni ham hisoblash tavsiya etiladi: aylanma mablag'larning aylanishi, rentabellik va b.

Kreditga layoqatlilikni baholash xo'jalik sub'ektining balansi, foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotini tahlili qilish asosida amalga oshiriladi. Bundan tashqari, zarur hollarda kreditga layoqatlilikni baholashda davlat statistika organlarining ma'lumotlari, Bankning o'z jadvallari va tahliliy materiallari va boshqalardan foydalaniladi.

Kreditga layoqatlilikning asosiy ko'rsatkichlari quyidagi koeffitsientlar hisoblanadi:

1) Qoplash koeffitsienti

$$QK = \frac{LM}{QMM}$$

bu yerda:

QK – qoplash koeffitsienti

LM – qisqa muddatli likvid mablag'lar

QMM - qisqa muddatli majburiyatlar.





Agar qisqa muddatli likvid mablag'lar (LM) qisqa muddatli majburiyatlardan (QMM) kamida ikki barobar ortiq bo'lsa (ya'ni $KP \geq 2$), xo'jalik sub'ektining moliyaviy ahvolini yaxshi deb hisoblash mumkin. Bu eng yuqori mezoniy chegara. Quyi chegara sifatida esa xo'jalik sub'ektining qisqa muddatli likvid mablag'larga (LM) teng miqdordagi qisqa muddatli majburiyatlarga (QMM) ega bo'lgan holat olinadi (ya'ni $KP=1$).

Shu bilan birga, xo'jalik sub'ektlarining ishlab chiqarish xarakteri, aktivlar tuzilmasi kabi omillari, qoplash ko'rsatkichi bilan tavsiflanadigan korxona balansining haqiqiy likvidlik holatini biroz buzib ko'rsatishi mumkin.

2) Likvidlik koeffitsienti

Turli omillarning ta'sirini kamaytirish uchun xo'jalik sub'ektlari balansining **likvidlik ko'rsatkichi** hisoblab chiqiladi. Ushbu ko'rsatkich pul mablag'lari va tez sotiladigan talablar summasining qisqa muddatli majburiyatlarga nisbati sifatida aniqlanadi, ya'ni tovar-moddiy boyliklar zaxiralari inobatga olinmaydi va faqat real likvid aktivlar hisoblanadi. U quyidagicha hisoblanadi:

$$LK = \frac{PM + TST}{QMM}$$

bu yerda:

LK – likvidlik koeffitsienti

PM – pul mablag'lari

TST – tez sotiladigan talablar

QMM - qisqa muddatli majburiyatlar.



Likvidlik koeffitsienti joriy majburiyatlarning qaysi qismi nafaqat naqd pullar, balki jo'natilgan mahsulotlar, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun kutilayotgan tushumlar hisobidan qoplanishi mumkinligini ko'rsatadi.

3) Avtonomiya koeffitsienti

Xo'jalik sub'ektlarining o'z mablag' manbalari bilan ta'minlanganligi (yoki avtonomiya koeffitsienti (AK)) korxona balans passivida o'z manbalari ulushini hisoblab chiqarish yo'li bilan baholanadi va korxonaning qarz mablag'lariga qaram emasligini, ya'ni undan mustaqil ekanligini aks ettiradi.

O'z mablag' manbalari bilan ta'minlanganlik koeffitsienti quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$AK = \frac{O'M \text{ (o'z mablag' manbalari)}}{BV \text{ (balans valyutasi)}}$$

bu yerda:

AK – avtonomiya koeffitsienti

O'M = 480-qat. (Passivning birinchi bo'limi jami, "O'z mablag' manbalari") minus 290-qat. (Ta'sischilarning ustav sarmoyasi bo'yicha qarzдорligi)

BV = 780-qat. (Jami passiv) minus 022-qat. (Nomoddiy aktivlarning qoldiq qiymati)

Korxonaning o'z mablag' manbalari bilan ta'minlanganlik koeffitsienti 30 foizdan kam bo'lishi mumkin emas. Aylanma mablag'larning aylanishi yuqori bo'lgan holda va korxonaning faoliyat xususiyatiga bog'liq holda ushbu ko'rsatkichning ruxsat etilgan darajasi biroz kichik bo'lishi mumkin.

Agar ushbu koeffitsient 0,6, ya'ni 60 foizdan yuqori bo'lsa, kredit xatari minimumga keltirilgan deb hisoblanadi.





4) O'z aylanma mablag'lari mavjudligi ko'rsatkichi:

$$O'AMM = O'MM - AV,$$

bu yerda:

O'AMM – o'z aylanma mablag'lari mavjudligi

O'MM – o'z mablag' manbalari

AV – uzoq muddatli aktivlar

Agar, xo'jalik sub'ektining asosiy vositalari va aylanmadan tashqari aktivlari (balans aktivining 1 bo'limi jami) o'z mablag' manbalaridan ortiq bo'lgan holda, nolikvid balans hosil bo'ladi. Nolikvid balansga ega bo'lgan xo'jalik sub'ektlari bank kreditlaridan foydalanishga haqli emas.

Kreditga layoqatlilikning qo'shimcha ko'rsatkichlariga quyidagilar kiradi:

- o'z aylanma mablag'lari mavjudligi dinamikasi;
- foydalilik;
- amalga oshirilmagan to'lovlar;
- aylanma mablag'larning aylanishi.

1-jadval

Kreditga layoqatlilik asosiy ko'rsatkichlarining sinflar bo'yicha talablari

p /p	Nomi	I sinf	II sinf	III sinf



Qoplash koeffitsienti (QK)	$QK \geq 2,0$	$2 > QK \geq 1,0$	$1 > QK > 0,5$
Likvidlik koeffitsienti (LK)	$LK \geq 1,5$	$1,5 > LK \geq 1,0$	$1 > LK > 0,5$
Avtonomiya koeffitsienti (AK)	$AK \geq 60\%$	$60\% > AK \geq 30\%$	$30\% > AK > 15\%$

Tahlil va koeffitsientlar miqdorlari asosida xo'jalik sub'ektlari 3 ta kreditga layoqatlilik sinflari bo'yicha tasniflanadi va, u yoki bu sinfga mansubligidan kelib chiqib, Bankning korxona bilan kredit munosabatlari tuziladi. Kreditga layoqatlilik sinfini aniqlashda uchta koeffitsientning o'rtacha yig'indisi ko'rsatkichi olinadi, ya'ni:

Birinchi sinfga mansub korxonalar umumiy tartibda (umumiy shartlar asosida) kreditlanadi. Ular uchun imtiyozli kreditlash tartibi ko'zda tutilishi, ya'ni ishonchli kredit berilishi va qonunchilik hamda Bankning ichki kredit siyosatiga muvofiq boshqa imtiyozlar taqdim etilishi mumkin.

Ikkinchi sinfga mansub korxonalar, umumiy tartibda kreditlanadi, agar qo'shimcha ijobiy ko'rsatkichlar mavjud bo'lsa, imtiyozlar ham berilishi mumkin (ishonchli kredit berishdan tashqari).

Biroq, agar ikkinchi sinfga kiritilgan korxona qo'shimcha salbiy ko'rsatkichlarga ega bo'lsa, uni moliyaviy beqaror deb hisoblash zarur va bunday korxona bilan shartnomalar tuzishda uning faoliyatini va kredit qaytarilishini nazorat qilishning qo'shimcha choralarini ko'zda tutish lozim.





Bunday choralar, masalan, garov huquqini qat'iylashtirish, foiz stavkalarini oshirish, kreditlardan foydalanish miqdorlari va muddatlarini cheklash va h.k.lardan iborat bo'lishi mumkin.

Uchinchi sinfga mansub korxonalar kreditga layoqatsiz hisoblanadi va alohida hollardagina faqat likvidli mulk garovi ostida kreditlanadi.

Kreditga layoqatlilik ko'rsatkichlari III sinfdan past bo'lgan korxonalar kreditlanmasligi lozim.

2-jadval.

**Tijorat banklarining kreditlari to'g'risida, 2026 yil 1 yanvar holatiga
ma'lumot mlrd so'm**

№	Bank nomi	Jami kreditlar	shundan	
			jismoniy shaxslar	yuridik shaxslar
Jami		604 002	220 283	383 720
Davlat ulushi mavjud banklar		404 469	116 130	288 339
1	O‘zmilliybank	105 382	22 315	83 067
2	Agrobank	81 108	16 523	64 585
3	O‘zsanoatqurilishbank	64 936	9 707	55 229
4	Asaka bank	41 464	12 861	28 603
5	Xalq banki	33 600	23 565	10 035
6	Biznesni rivojlantirish banki	24 552	13 659	10 893
7	Mikrokreditbank	20 278	8 419	11 859
8	Aloqa bank	18 810	5 500	13 311



9	Turon bank	14 338	3 581	10 758
Boshqa banklar		199 533	104 153	95 381

2026 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, O'zbekiston tijorat banklarining jami kredit portfeli 604,0 trln so'mni tashkil etgan. Shundan 220,3 trln so'mi (36,5%) jismoniy shaxslarga, 383,7 trln so'mi (63,5%) esa yuridik shaxslarga ajratilgan bo'lib, korporativ kreditlash ustunlik qilayotganini ko'rsatadi.

Davlat ulushi mavjud banklar hissasiga jami kreditlarning 67,0 foizi to'g'ri keladi. Eng yirik kredit portfeliga ega banklar O'zmilliybank (105,4 trln so'm), Agrobank (81,1 trln so'm) va O'zsanoatqurilishbank (64,9 trln so'm) hisoblanadi. Shu bilan birga, Xalq banki jismoniy shaxslarni kreditlash bo'yicha yetakchilik qiladi.

Ushbu holat kredit portfeli sifatini ta'minlashda mijozlarning moliyaviy holatini aniq va kompleks baholash, kredit risklarini samarali boshqarish hamda zamonaviy skoring va reyting usullarini keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, banklarda mijozlarning moliyaviy holatini aniqlash uslubini xalqaro standartlar va ilg'or bank amaliyoti asosida takomillashtirish kredit portfeli sifatini oshirish, kredit risklarini samarali boshqarish, muammoli kreditlar hajmini kamaytirish hamda tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Basel Committee on Banking Supervision. (2017). *Guidelines on Credit Risk and Accounting for Expected Credit Losses*. Bank for International Settlements.



2. Basel Committee on Banking Supervision. (2024). *Basel Framework*. Bank for International Settlements.
3. Bajaj, R. V., & Gupta, S. (2024). Credit Quality and Credit Risk: A Rigorous Walkthrough. *The Indian Economic Journal*.
<https://doi.org/10.1177/00194662241254500>.
4. Mulchandani, K., Ganguli, S. K., & Mulchandani, K. (2025). Optimizing earning quality in bank finance: a theoretical model and empirical investigation in India. *Cogent Economics & Finance*.
<https://doi.org/10.1080/23322039.2025.2455386>.
5. Financially literate consumers and their credit portfolios: longitudinal evidence from PSID data. (2025). *International Journal of Bank Marketing*, 43(7), 1513–1540.
6. O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi Qonuni. Yangi tahrir.
7. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Tijorat banklarida risklarni boshqarish va aktivlar sifatini baholashga oid me'yoriy hujjatlar.
8. Asian Development Bank. (2024). *Asian Development Outlook 2024*. Manila.
9. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). (2024). *OECD Economic Outlook*. Paris.

